

DUNYO HAMJAMIYATIDA. O'ZBEKISTONNING TUTGAN O'RNI.

Odil Egamov

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Geografiya
va Iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 3-bosqich talabasi.*

Ishonch bilan aytish mumkinki, bizning xalqlarimizni mintaqaviy o'ziga xoslikni anglash tuyg'usi birlashtirmoqda va bu tuyg'u tobora kuchayib bormoqda, Bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarimiz ham umumiy va mushtarakdir. dedi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMTning 78-sessiyasida so'zlagan nutqida.

Bugungi kunda. Yer yuzida 240 dan ortiq mamlakat bo'lib shundan 194 tasi Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar hisoblanadi shu a'zo davlatlar ichida Mustaqil O'zbekiston ham bor. Jahan quruqlik maydoni 149 ming kv km. ni tashkil qiladi shundan 448.9 ming kv km O'zbekiston hududiga to'g'ri keladi. O'zbekiston o'zining mustaqilik deb atalmish ezgu va muqaddas orzuning ro'yobga chiqishi uchun asrlar mobaynida intlib kurashib keldi.

1991 yil 1-sentabrni O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karmov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mustaqil davlat sifatida e'lon qilindi va shu bilan. Jahan hamjamiyatida bitta mustaqil davlat paydo bo'ldi. 130 yillik Rossiya mustamlakasiga mahkum etilgan davrning ilgarigi zamonlardan farqi shuki, shu vaqtda ayniqsa, sho'rolar hukumronligi yillarda Xalqimiz tashqi dunyodan butunlay uzub qo'yildi. Mustabid sovet tuzumi davrida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarni asosan sosialistik mamlakatlar bilan, sobiq markazning yo'l-yo'riqlari bilan amalga oshirar. Respublikaning o'zi tashqi bozorga mustaqil ravishda chiqish huquqiga ega emas edi. Respublikaga olib kelinadigan mahsulot hajmiga nisbatan ancha ortiq edi. 1990 yil respublikaga 14661,8 mln. So'mlik mahsulot olib kelingan bo'lsa chetga chiqarilgan mahsulot hajmi 9351,5 mln so'mga teng bo'lgan. XX asrning 90 yillarda. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligni qo'lga kiritib Jahan hamjamiyatiga kirish, integratsiyalashish tomon yuz tutdi. Jahan amaliyotidan ma'lumki, har bir mustaqil davlat, ayniqsa mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlar, hech qachon o'z qobig'iga o'ralib rivojlanmagan. Aksincha mustaqil rivojlanish yo'lini tanlash bilanoq jahon hamjamiyatga qo'shilish orqali o'z taqdirini belgilagan. O'zbekiston jahon hamjamiyatga qo'shilish davri g'oyat bir murakkab va qaltis davrga to'g'ri keldi. Sobiq ittifoq tarqalib ketgach dunyo asosan ikki qutbli (SSSR va AQSH) bo'lgan bo'lsa, endi ko'p qutbli bo'lib qolgan edi. O'zbekiston geosiyosiy

jihatdan qulaylik tug'diruvchi imkoniyatlar bilan birga, bu borada qiyinchiliklar tug'diruvchi bir qancha omillar ham mavjud edi. Garchi tashqi siyosat sohasidagi an'analarimizning ildizlari uzoq moziyga borib taqalsada mustamlaka davridagi yo'qotishlar natijasda, dastlabki paytlarda respublikamiz tashqi siyosat yuritish tajribasiga ham, jahon diplomatiyasini biladigan kadrlarga ham ega emas edi. Tashqi siyosiy diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni o'zi mustaqil boshlashga to'g'l kelsada, respublika rahbariyati bu boradagi muammolarni echishga dadil kirishdi, yuqorida ta'kidlab o'tilgan qiyinchiliklarni engib o'rib, qisqa davr mobaynida o'z o'rni va mavqeiga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi o'z tarixda birinchi bor Xalqaro Umumjamiyatning teng huquqli sube'kti sifatida BMT a'zoligiga qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Yer maydoni 448.9 ming kv km ni tashkil etib. Yer maydoni bo'yicha dunyoda 55 o'rinda Aholisi 2023 yil ma'lumotlarga ko'ra 36 million kishdan ziyotni tashkil qilib Jahonda aholi soni bo'yicha 34 o'rinda turadi shuning o'zi ham Dunyoda O'zbekistoning qanchalik muhim ekanligni bildradi Bugungi kunda mamlakatimiz jahoning boshqa mamlakatlari bilan tengma teng ish olib bormoqda jahoning ko'plan mamlakatlari bilan ikki va ko'p tamonlama hamkorlik qilib kelmoqda misol uchun Rossiya AQSH Xitoy Hindiston Janubiy koreya Yaponiya Germaniya Fransiya Turkiya Saudiya Arabistoni markaziy osiyo mamlakatlari va h.k lar bilan hamkorlik qilib kelmoqda bular asosan texnikaviy madaniy qishloq xo'jaligi tibbiyat talim turizm xavsizlik tovar ayirboshlash va h.k lar bo'yicha hamkorlik qilib kelmoqda bu borada yetakchi hamkor davlatlari Rossiya Xitoy Qozog'iston hisoblanadi. bundan tashqari mamlakatimiz Xalqaro tashkilotlar bilan ham hamkorlik qilib kelmoqda misol uchun Birlashgan Millarlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Juhon banki, Osiyo banki, Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki va h.k lar bilan hamkorlik qili kelmoqda. bu esa Juhon hamjamiyati uchun O'zeliston qanchalik muhim ekanligni ko'rsatib turibdi. Bugun O'zbekiston izchil taraqqiy topayotgan davlat va jahon hamjamiyatining xalqaro munosabatlar tizimida muhim o'rin tutayotgan teng huquqli a'zosidir. Uning keng miyosli demokratik hamda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshrishdagi tajribasi izchil rivojlanishining muvaffaqiyatli modeli sifatida xalqaro jamoatchlilikda katta qiziqish uyg'otayotgan holda, ko'plab mamlakatlarning ekspertlari va siyosatchlari tomonidan atroflicha tadqiq qilinmoqda. Bunga ko'p jihatan, O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidgi faol hamkorliga ko'maklashayapdi. Ular mamlakatimizga xalqaro miyosdagi dolzarb muammolarning hal etilishidagi muhim hamda vaqt sinovdan

o'tkan-sherik sifatida qarashmoqda. Shu bilan birga, nufuzli xalqaro tuzilmalar respublikamizda ro'y berayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga, davlat hamda jamiyat hayotidagi izchil islohotlar natijasda qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta'minlanishi hamda ularning farovonligi yuksalishiga katta qiziqish bildirishmoqda. So'ngi paytlarda O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti va erishgan muvaffaqiyatlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi singari ko'p tomonlama institutlar hamda boshqa tashkilotlar doirasda alohida qiziqish bilan ko'rib chiqilayotgani ham tez-tez kuzatilmoqda. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijalari haqidagi ma'lumotlar muntazam ravishda Bosh Assambleya yig'ilishlarining rasmiy hujjati sifatida qabul qilinmoqda. Maskur hujjatlarda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ta'minlanishi, aholi farovonligining oshishi, sud-huquq tizimi islohotlari, ta'lim va sog'lijni saqlash, ekologiya, yoshlar siyoasti, oziq-ovqat xavfsizligi, fuqarolik jamiyati hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining shakillanishi va mustahkamlanishi singari sohalarda erishilayotgan natijalarning mazmun-mohiyati o'z ifodasini topmoqda. Xalqaro munosabatlar ravnaqi mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikning, aholi turmush darajasini yuksaltirishning o'ziga xos kafolati ekanligi hech kimga sir emas. Shu bois ham O'zbekiston rahbariyatining tashqi siyosatda mintaqaviy barqarorlikni saqlab qolish maqsadida ilgari surgan tashabbuslari ko'pgina davlatlar va BMT tomonidan doimo tasdiqlanib kelinmoqda. Yana bir dunyoda o'zbekistonning nechog'li muhim ekanidan darak beruvchi Toshkent shahrida Xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi yani 2023 yilning 22-23 iyul kunlari Toshkent shahrida Prezidentimiz tashabbuslari bilan "Afg'oniston Xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Poytaxtimizda ilk bor Markaziy va Janubiy Osiyo Yevropa, Amerika, Yaqin va O'rta Sharq Osiyo-Tinch okeani mintaqalarining Afg'onistonda barqarorlikni tiklashga bevosita jalb etilgan 20 dan ortiq davatining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakillari, o'nlab xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, jumladan BMT, Yevropa Ittifoqi, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkilot rahbarlari va mutaxassislari, shuningdek, Afg'oniston Muvaqqat hukumati delegatsiyasi bir maydonda jam bo'ldi. Shu bilan birga forumda mahalliy ekspertlar, olim va tadqiqotchilar, Afg'onistonga qo'shni davlatlar, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Rossiya, Aqsh, Eron, Pokiston, Hindiston va Belgiyadan yetakchi tahliliy markazlar rahbarlari va ekspertlari

ishtirok etdi. Ushbu yangi format konstruktiv munozara yuritish uchun shartsharoit yaratish va Afg'onistonning yangi hokimiyati bilan pragmatik muloqot o'rnatish bo'yicha kelishilgan yondashuvlar ishlab chiqishga qaratilgan. Muloqot davomida asosiy e'tibor Afg'oniston Muvaqqat hukumati tomonidan jahon hamjamiyatining quyidagi asosiy talablari bajarilishiga qaratiladi. Bundan ko'zlangan maqsad afg'on zamini xalqaro terrorchi tashkilotlarning doimiy boshpanasiga aylanishiga, mamlakat hududini qo'shni va dunyoning boshqa davlatlari xavfsizligiga taxdid solishda foydalanimishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, mamlakatda umummilliy yarashuvning asosiy sharti sifatida afg'on jamiyatining barcha qatlamlari vakillaridan iborat hukumatni shakllantirish, insonlar, ayniqsa, ayollar va barcha etnik-diniy guruhlar huquq va erkinligini ta'minlashdan iborat. Bundan tashqari. Anjumanda Afg'onistonni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tiklash, afg'on xalqining hozirgi va kelgusi avlodlari uchun uzoq kutilgan tinch hayotni ta'minlashga qaratilgan infratuzilma va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish masalalari ham ko'rib chiqildi. Bu konferensiya mintaqa va butun dunyo uchun ahamiyatli hisoblanadi. Konferensiyada mintaqa uchun ko'plab takliflar aytildi bulardan

- "Termiz-Mozori-Sharif-kobul-Peshovar" temir yo'lini qurish bu orqali O'zbekiston va Afg'oniston o'z yuklarni dengizga olib chiqish imkoniyati vujudga keladi va yuklarning bir necha foizga arzonlashishiga olib keladi.

- "Surxon-Puli-Xumri" elektr uzatish tarmog'ini yotqizish.

-gumanitar yordam ko'rsatish bo'yicha xalqaro ko'p funksiyali transport-logistika markazi. Va h,k lar shular jumlasidandir bir so'z bilan aytganda konferensiya juda qizg'in va boy tarzda o'tdi aytilgan takliflar mintaqa va butun dunyo uchun xizmat qiladi shundan ham ko'rinish turibdiku mamlakatimiz mintaqa uchun emas butun dunyo uchun ham juda muhim o'ringa ega mamlakat. Shuningdek mamlakatimiz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ham yaxshi qo'shni va muhim savdo sherigi hisoblanib. Jumladan, O'zbekistonning umumiyligi tashqi savdo aylanmasida Markaziy Osiyo davlatlarining ulushi 2019-yildagi 12,4 foizdan, 2020 yilda 13,6 foizga oshgan. O'zbekistonning mintaqadagi umumiyligi tashqi savdo aylanmasida esa Qozog'istonning ulushi 61 foiz, Qirg'iziston - 18,2 foiz, Turkmaniston - 10,6 foiz va Tojikistonning ulushi 10,2 foizni tashkil etdi. Qayd etish joizki, so'nggi uch yil ichida O'zbekistonning mintaqaviy sa'y-harakatlari tufayli Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Bu vaqt ichida mintaqamizda do'stlik, yaxshi qo'shnichlik va o'zaro hamkorlik muhitini yaratishga erishildi. Shu bilan birga mamlakatimiz jahon hamjamiyati uchun juda muhim mamlakat bo'lib. Olis Sharq bilan Yevropani

bog'lovchi muhim savdo yo'li hisoblanadi bejizga Buyuk ipak yo'li ham mamlakatimizdan o'tmagan chunki o'sha vaqtarda ham mamlakatimiz muhim savdo yo'lida joylashganligi va Xitoy va Yevropa savdogarlar bizni mamlakatimizdan ko'plab mahsulotlar olib ketishgan. Mamlakatimiz Jahon hamjamiyati uchun ko'plab manfaatli takliflarni bildirib kelmoqda va bu takliflar mamlakatimiz balki butun dunyo mamlakatlari uchun ham bir day ahamiyatli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

Kun uz.

Daryo uz.

Xabar uz.

Gazeta uz.